



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TOPONIMLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI (TERMIZ VA VINCHESTER TOPONIMIK OBYEKT NOMLARI MISOLIDA)

Shoyimova Komila O'rol qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

komilashoyimova@tues.uz

<https://orcid.org/0009-0000-1604-8467>

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan Termiz shahri hamda Angliyaning tarixiy shahri Vinchester misolida o'zbek va ingliz tillarida toponimlarning etnolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Toponimlar nafaqat joy nomi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va til tafakkurining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ishda toponimlarning xalq tafakkuridagi akslanishi, etnik, tarixiy va madaniy ma'lumot tashuvchilik funksiyasi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Toponimika, etnolingvistika, Termiz toponimlari, Vinchester toponimlari, madaniy meros, til va tafakkur, tarixiy xotira, chog'ishtirma tahlil, oykonim, milliy identitet.

Kirish

Toponimlar tilda muayyan etnik guruhga xos bo'lgan tarixiy, madaniy va ijtimoiy tushunchalarni mujassam etgan belgilar majmuasidir. *Etnolingvistika* fanining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida toponimlarni o'rganish, ayni hudud aholisining milliy tafakkuri, qadriyatlari va tarixiy-madaniy taraqqiyoti haqida muhim ma'lumot beradi. Toponimlar, ya'ni geografik obyektlar nomlari tilshunoslikda muhim tadqiqot



obyektlaridan biri hisoblanadi. Ular faqatgina joyni bildiruvchi belgilar emas, balki xalq tafakkuri, tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va til tizimining o'ziga xos qatlamini tashkil etadi. Ayniqsa, *etnolingvistik yondashuv* orqali toponimlarga nazar tashlash, ularning chuqur ma'naviy-ruhiy va ijtimoiy ildizlarini ochib beradi.

Etnolingvistika va toponimika o'zaro bog'liqligi. Etnolingvistika til, madaniyat va xalq tafakkurining o'zaro munosabatini o'rganuvchi fandır. Bu yo'nalishda toponimlar tilning etnik komponentlarini yoritib beruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Har bir toponim muayyan tarixiy davrda, muayyan xalq va madaniyat vakillari tomonidan yaratilgan va shu tufayli ularning etnik tafakkurida qanday qadriyatlar, obrazlar va konseptlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Termiz shahri toponimlarining etnolingvistik xususiyatlari. Termiz qadimiy va tarixiy shahar bo'lib, uning toponimik qatlamida asosan islomiy madaniyat, diniy qadriyatlar va tarixiy shaxslar bilan bog'liq nomlar ustuvorlik qiladi. Shuningdek, o'zbek xalqi madaniy ongida muhim o'rin tutgan tushunchalar – *kamolot, iftixor, sahovat, mehr-muruvvat* kabi so'zlar mahalla, ko'cha va binolarga nom berishda keng qo'llanadi. Misol tariqasida; Najmiddin Kubro ko'chasi – yirik so'fiy va mutafakkir nomi bilan atalgan. *Sunani Termiziy* – hadis ilmining mashhur namoyandasi Abu Iso Termiziy nomi bilan bog'liq. *Dilkusho, Tafakkur, Ozodlik* – xalq ruhiyatidagi ijobiy qadriyatlar va tushunchalarning lingvistik aksidir. Ushbu toponimlar Termiz aholisi ongida milliy g'urur, diniy tafakkur, va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar mustahkam o'rin egallaganini ko'rsatadi. *Vinchester shahri toponimlarining etnolingvistik xususiyatlarida esa* Vinchester esa Britaniya tarixidagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, u miloddan avvalgi rimliklar va keyinchalik saksonlar, normanlar tomonidan yirik siyosiy va diniy markaz sifatida shakllangan. Vinchester toponimikasida asosan tarixiy davrlar, sulolaviy izlar, diniy iyerarxiya va xristianlik konseptlari ustuvorlik qiladi. Misol tariqasida *Alfred Road* – Angliyaning mashhur qirollaridan biri Alfred the Great nomi bilan bog'liq. *Cathedral Close, Dean Lane* – Vinchester sobori va cherkov ierarxiyasi bilan bevosita bog'liq diniy toponimlar. *Romans Road, Saxon Close* – shahar tarixidagi qadimgi



bosqinchilar va aholi guruhlarining izlarini ko'rsatadi. Bu toponimlar ingliz etnolingvistik manzarasida monarxiya, xristianlik va tarixiy qatlamlarning hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi. O'zbek va ingliz toponimik tizimlarining etnolingvistik xususiyatlarini chog'ishtirish natijasida quyidagi umumiylik va farqliliklar aniqlanadi:

Umumiyliklar. Har ikki til toponimlarida tarixiy shaxslar, diniy qadriyatlar va ijtimoiy tushunchalar asosiy nomlash motivatsiyasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa toponimlarning milliy xotirani saqlovchi vosita ekanini ko'rsatadi.

Farqliliklar. O'zbek tilida toponimlar ko'proq ma'naviy-ruhiy tushunchalar, axloqiy qadriyatlar (sahovat, iftixor) bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida esa tarixiy-davriy davrlar (Saxon, Norman), sulola nomlari (King's Way), va cherkov tizimi (Dean, Cathedral) ustuvorlik qiladi. Bu esa har ikki millatning tarixiy tajribasi, diniy urf-odatlar va ijtimoiy tuzumi toponimlarida qanday aks etishini ko'rsatadi. *Etnolingvistik xotiraning saqlanishida toponimlarning roli*

Toponimlar til va madaniyat uzviyligining eng yorqin ko'rinishlaridan biridir. Ular orqaligina xalq o'z tarixiy-madaniy xotirasini saqlaydi, avloddan-avlodga o'tkazadi. Termiz va Vinchester misolida ko'rilganidek, har bir shahar toponimlari orqali o'z xalqining *mentaliteti, dunyoqarashi va etnolingvistik identitetini* ifodalaydi. *Termiz shahrining etnolingvistik toponimlari:* Termiz toponimik tizimida qadimiylilik, islomiy qadriyatlar va tarixiy shaxslar bilan bog'liq nomlar yetakchilik qiladi. Masalan: **Najmiddin Kubro, Termiziy, Sahovat, Iftixor, Kamolot** kabi nomlar xalqning diniy-ma'naviy qadriyatlariga asoslangan. **Sunani Termiziy, Samandar Termiziy** kabi toponimlar esa mahalliy tarixiy shaxslar va ularning ilmiy merosi bilan bog'liq. Bu toponimlar xalqning tarixiy xotirasi, diniy e'tiqodi va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'zbek xalqining etnogenetik ildizlarini yoritib beradi. **Vinchester shahrining etnolingvistik toponimlari:** Vinchester – qadimgi anglosakslar davridan boshlab Angliya tarixida muhim o'rin tutgan shahar. Bu yerda quyidagi etnolingvistik motivatsiyali nomlar uchraydi: **King's Way, Alfred Road, Norman Road** – monarxiya va tarixiy sulolalar bilan bog'liq. **Cathedral Close, Dean Lane** – xristianlik dini va



cherkov ierarxiyasi bilan bog‘liq terminlardan tarkib topgan. **Romans Road, Saxon Close** – Vinchester hududining qadimgi tarixiy davrlarga mansubligini bildiradi. Ingliz toponimikasida ko‘p hollarda tarixiy davrlar (rimliklar, saksonlar, normanlar) va diniy iyerarxiya (bishop, dean, cathedral) asosiy etnolingvistik motivator bo‘lib xizmat qiladi.

Chog‘ishtirma tahlil:

Ko‘rsatkich	Termiz	Vinchester
Tarixiy shaxs nomlari asosidagi toponimlar	Najmiddin Kubro, Termiziy	Alfred Road, King's Way
Diniy motivatsiyali toponimlar	Sahovat, Sunani Termiziy	Dean Lane, Cathedral Close
Etnik yoki tarixiy davrlarni aks ettiruvchi	Samandar Termiziy, Qashqadaryo yo‘li	Romans Road, Saxon Close
Mahalliy qadriyatlar aks ettiruvchi	Iftixor, Kamolot, Mehr-muruvvat	Norman Road, Royal Green

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, har ikki shahar toponimlarida ham tarix, din va etnos muhim markaziy semantik yadroni tashkil qiladi. Biroq Termiz toponimlarida islomiy va ma’naviy qadriyatlar ustuvor bo‘lsa, Vinchester toponimlarida monarxik va xristianlik tarixiy qatlamlari ko‘proq aks etadi.

Xulosa:

Toponimlar — bu til orqali ifodalangan xalq xotirasi, tarix va madaniyatning lingvistik aksidir. Termiz va Vinchester shaharlarining toponimik tizimini o‘rganish orqali biz ushbu hududlarning etnolingvistik manzarasini anglaymiz. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, toponimlar orqali xalq tafakkuri, qadriyatlar tizimi va madaniy kontekst yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holat ularni chog‘ishtirma tilshunoslik va madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan ham o‘rganishni zarur qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murzaev E.M. *Geografik nomlar lug'ati*. – Moskva: Mysl, 1984.
2. Gelling M. *Place-Names in the Landscape*. – London: J.M. Dent & Sons, 1984.
3. Qodirov R. *Toponimlarning lingvistik xususiyatlari*. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. – Cambridge Univ. Press, 2003.
5. Ahmadaliyev A. *Toponimika asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.